

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

AMALIY FILOLOGIYA MASALALARI

2024 Vol. 2 (5)

www.aphil.tsuull.uz

Bosh muharrir:

Saodat Muhamedova

Mas'ul kotib:

Elyor Xonnazarov

Tahrir kengashi

Aynur O'zjan (Turkiya), Baydemir Husayn (Turkiya), Alfiya Yusupova (Rossiya), Luiza Samsitova (Rossiya), Almaz Ulvi (Ozarbay-jon), Merveri Ismailova (Ozarbayjon), Abdulhay Sobirov, Shoiri Isayeva, Nargiza Musulmonova, Munira Shodmonova, Oqila Turaqulova, Iroda Azimova, Yekaterina Shirinova, Dilrabo Elova, Xurshida Kadirova, Jumana-zar O'rozov, Xasan Akramov, Ra'no Azizova, Azimjon Davronov.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari" seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, unda professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning amaliy tilshunoslik, amaliy adabiyotshunoslik, kompyuter lingvistikasi, o'zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o'qitish, nashirlik ishi kabi sohalarga oid tadqiqotlari nashr qilinadi.

Jurnal ilovasi bir yilda ikki marta chop etiladi.

O'zbek, rus va ingliz tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari" seriyasi 2022-yildan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: aphil@tsuull.uz

Website: <http://www.aphil.tsuull.uz>

MUNDARIJA

AMALIY FILOLOGIYA

Aynur Cəfərova

Qədim “Manas” dastanında işlənmiş vokal və konsonantlar..... 5

Екатерина Ширинова

Конфликтное общение: факторы, причины, некоторые пути
преодоления 13

Jumanazar O‘rozov

Lingvokriminalistik tadqiqning metod va metodologiyasi xususida... 20

Nərmin Rəhimova

Əbdülhəmid Çolpanin həyat və yaradıcılığı 29

Sabohat Allanazarova, Dilrabo Elova

Sentiment tahlil uchun matndan valentlik, hissiyot va boshqa ta’sirchan
holatlarni aniqlash 38

O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH

Oqila Turakulova

Xorijiy davlatlarning o‘quvchilarida mutolaa madaniyatini rivojlantirish
tajribasi 48

Fotima Xamidullayeva

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda dialoglarning ahamiyati 58

Azoda Beysenova

“Soliqlar va soliqqa tortish” yo‘nalishi talabalariga o‘zbek tili darslarida
ichki ish hujjatlarini o‘rgatish 66

Nilufar Odiljonova

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda media ta’limdan
foydalanish 76

LINGVOKULTUROLOGIYA

Həsənova Ülkər

Azərbaycan xalqının təşəkkülü prosesi 83

LINGVOPOETIKA

Nasim Xo‘jayev

Tilshunoslikda badiiy matn tadqiqi 92

SOTSILOGIYA

Snegur Margarita, Xasan Akramov

Language in the national identity stucture 99

CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK

Xurshida Kadirova

O'zbek tarjimashunosligi va chog'ishtirma tilshunosligida evfemizm va disfemizmlar talqini..... 109

KORPUS LINGVISTIKASI

Elyor Xonnazarov

Davomli hozirgi zamon grammatik shakllari annotatsiyasi.....126

AMALIY PSIXOLOGIYA

**Арай Аманова, Саодат Мухамедова, Эльмира Абдраимова,
Альфия Женисова**

Особенности взаимоотношения родителей и учащихся средней школы в инклюзивной среде..... 134

**Гульжанар Джумажанова, Илхом Аслонов, Оксана Беленко,
Гульнар Турсунгожинова**

Психологические условия формирования профессионального мышления студентов вуза..... 144

KORPUS LINGVISTIKASI

DAVOMLI HOZIRGI ZAMON GRAMMATIK SHAKLLARI ANNOTATSIYASI

Elyor Xonnazarov¹

Abstrakt

Maqolada o'zbek tilidagi davomli hozirgi zamonni ifodalovchi grammatik shakllarni korpus uchun annotatsiyalash va modellashtirish haqida ma'lumot berilgan. Bunda ularning matn tarkibida qo'llanilishida turli holatlarning mavjudligi, mazkur holatlarni modellashtirish imkoniyati tahlilga tortilgan. Tahlillarda, statistik ko'rsatkichlarda O'zbek tilining ta'limiy korpusi (uzschoolcorpora.uz) matnlariga tayanilgan.

Kalit so'zlar: *zamon, davomli hozirgi zamon, grammatik shakl, o'tgan zamon, kelasi zamon, kontekst, nutq vaziyati, nutq momenti.*

KIRISH

Morfema annotatsiyasi morfologik analizator strukturasining muhim qismlaridan birini tashkil etadi [Elov, Hamroyeva, Axmedova 2022, 27-28] va ma'lumotlar bazasidagi morfemaga biriktirilgan izoh va morfotaktik qoidalar asosida natija chiqariladi. Biroq matn tarkibida zamonni ifodalovchi grammatik shakllar har doim ham nutq momentiga ko'ra tasnifda mansub bo'lgan zamon ma'nosida qo'llanavermaydi. Grammatik shaklning o'z ma'nosidan chekinib, boshqa zamonni anglatgan holatlarning ayrimlarini nutqiy qurshovdan kelib chiqib modellashtirish mumkin. D.Elova ko'p sonli tillardagi matnlarni morfologik teglashda keng qo'llaniluvchi NLTK Python freymvorkining asosiy kamchiliklaridan biri sifatida kontekstga e'tibor berilmasligini keltirib o'tadi [Elova 2022, 145]. N.Abdurahmonova esa morfologik razmetka tegger yordamida amalga oshirilsa ham, bu dasturlarning aksariyati avtomatik razmetkadan keyingi tuzatishni talab qilishiga, jumladan, o'zbek tili uchun aynan istisno-

¹ Xonnazarov Elyor G'ofurovich –Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-pochta: www.xonnazarov90@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-2778-3784

Iqtibos uchun: Xonnazarov, E. 2024. "Davomli hozirgi zamon grammatik shakllari annotatsiyasi". O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 2 (5): 126-133. DOI: 10.52773/tsuull.aphil.2024.2.5/ZEVR2166

li vaziyatlar ko'p bo'lganligi sababli qayta tahrirlash zarurati yuzaga kelishiga e'tibor qaratadi [Abduraxmonova 2021, 303]. Olimaning istisnoli vaziyatlar haqidagi fikrlari zamon shakllari annotatsiyasi uchun ham taalluqli bo'lib, bu vaziyatlarni imkon qadar modellarda qamrab olish orqali natijani nisbatan yaxshilash mumkin.

Modellardagi til birliklarini o'zbekcha nomiga aloqador holda bu yo'nalishdagi oldingi ishlardaberilgani singari shartli belgi- lar bilan ifodaladik, ya'ni fe'l lemmani F, nisbat shaklini N, bo'lishli/ bo'lishsizlik shaklini BB, zamon shaklini Z, shaxs-son shaklini Sh bilan belgiladik. Grammatik shaklning allomorflari "al" qisqartmasi bilan, qo'shib yoki ajratilib yoziladigan variantlari "var" qisqartmasi bilan berildi.

ASOSIY QISM

Hozirgi zamon nutq momentiga to'g'ri kelganligi sababli boshqa zamonlarni belgilashda tayanch vazifasini bajaradi. Nutq momentida amalga oshib turgan harakat-holatlarni ifodalashga xizmat qiluvchi grammatik shakllar hozirgi zamon grammatik shakllari sanaladi. Bu zamon tizimida hozirgi zamonni statik, umumiy tarzda ifodalovchi (masalan, -a, -y) va dinamik davomiylikni ifodalovchi shakllar farqlanadi. Quyida hozirgi zamonda davomiylikni ifodalovchi grammatik shakllarni modellashtirish masalasiga to'xtalib o'tamiz.

-yap shakli. Hozirgi zamonning bu shakli nutq momentida davom etib turgan bevosita kuzatilgan harakat-holatlarni ifodalaydi. -a/-y shaklidan farqli ravishda -yap qo'shimchasida harkat-holatning davomiylikni dinamik xarakterga ega bo'ladi, ya'ni -a/-y orqali holatning umuman hozirgi vaqtda mavjudligi anglashilsa, -yap shakli bilan harakat-holatning nutq paytida konkret yuz berib turganligi, davom etayotganligi tushuniladi. Hozirgi zamonning davomiylikni ifodalovchi boshqa grammatik shakllaridan -yap nutq uslublariga nisbatan neytralligi bilan, og'zaki va yozma nutq shakllarida birdek qo'llanila olishi bilan farqlanadi. Shuningdek, -yap shakli orqali ifodalanadigan harakat-holatga so'zlovchi bevosita o'zi guvoh bo'ladi. So'zlovchi harakat-holat haqida boshqa manba orqali xabar topgan bo'lsa, bevosita kuzatmaganlik ma'nosi uchun *ekan, emish* to'liqsiz fe'llaridan foydalaniladi. Masalan: *Sizlar bugun tinch va osuda zamonda yashayapsiz.* (marifat.uz). *Koronavirusga chalingan bemorlar «Azimak» preparati bilan davalanyapti ekan, u virusga qarshi dori emasmi?* (xs.uz)

-yap shakli quyidagi modelda ifodalanadi:

$F + \downarrow N + \downarrow BB + yap + Sh2$ bo'lsa, u holda "yap= Z2(2)"

Bu shakl lotin yozuvidagi imlo qoidalariga ko'ra o'zi qo'shilayotgan qismning unli yoki undosh harf bilan tugashiga qarab farqlanuvchi allomorflariga ega emas, ya'ni bir xil -yap holda qo'shiladi. Biroq ta'limiy korpus matnlarida ko'plab o'rinlarda qo'shimchaning imloga nomuvofiq holda -ayap holda qo'shilganligini kuzatdik. Masalan: *Bu jarayonda OTM imkoniyatidan kelib chiqqan holda, tabaqalashtirilgan holda to'lanadigan to'lov shartnoma asosida o'qishni tashkil etish ham ko'zda tutilayapti.* (marifat.uz)

Bizningcha, bu xatoliklar kirill yozuvidagi matnlarni dastur yordamida avtomatik lotin yozuviga o'girish, shuningdek, talaffuz etilganidek yozishga urinish orqali yuzaga kelgan.

-yap shaklining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, uchinchi shaxsda undan keyin qo'llaniluvchi -di shaxs-son qo'shimchasining d undoshi -yap shaklidagi p undoshi ta'sirida jarangsizlashib t holda talaffuz qilinadi va shunday yozilishi me'yor hisoblanadi: *o'qiyapti, kelyaptilar.* Modellashtirishda -yap shaklidan keyin kelgan -di qo'shimchasida d tovushi t ga almashishiga e'tibor beriladi:

Agar $F+\downarrow N+\downarrow BB+yap+di$ bo'lsa, $di\rightarrow ti$

Ta'limiy korpus matnlarida 56 o'rinda imlo qoidalariga nomuvofiq holda -yap shaklidan so'ng shaxs-son qo'shimchasi -di tarzida qo'shilgan. Masalan: *Men bu mo'jizaviy ichimlikning aynan qanday ta'sir ko'rsatishini bilmayman, biroq u ta'sir ko'rsatyapdi.* (kun.uz)

-moqda shakli. -moqda shakli nutq momentida davom etib turgan harakat-hoatlarni ta'kidlab ifodalaydi. Bu shakl asosan yozma nutq uchun xoslangan. Yozma matnlarda -moqda -yap shakliga nisbatan faol qo'llaniladi. Ta'limiy korpus matnlarida -moqda shaklining -yap shakliga nisbatan ko'p uchrashining sababini ham korpusning yozma matnlar jamlanmasi ekanligi bilan izohlash mumkin. -moqda oddiy so'zlashuv uslubida deyarli ishlatilmaydi. Shuningdek, mazkur shakl aksar qo'llanishlarida kuchaytirish hissiy bo'yog'iga ega ekanligi bilan ham -yap qo'shimchasidan farqlanadi.

-moqda shakli allomorflari va variantlariga ega emas. U o'zidan keyin ikkinchi guruh shaxs-son shakllarini qabul qiladi. Uchinchi shaxsda -moqda zamon ma'nosi bilan birgalikda shaxs-son ma'nosini ham anglatadi. Yana bir e'tiborli jihat shundaki, fe'l tarkibida -moqda shaklidan oldin -ma bo'lishsizlik shakli qo'llanilmaydi. Fe'l tarkibida -moqda shakli quyidagicha modellashtiriladi:

$F+\downarrow N+moqda+\downarrow Sh2$ bo'lsa, u holda "moqda=Z2(3)"

Uchinchi shaxsda -moqda shaklidan so'ng maxsus shaxs-son ko'rsatkichi qo'llanilmaganda fe'lning harakat nomi vazifa shakli-

ni hosil qiluvchi -moq qo'shimchasiga o'rin-payt kelishigining -da qo'shimchasi qo'shilgan holat bilan shakldoshlik yuzaga keladi. Masalan:

1. *Quturgan toshqin uylarga bostirib **kirmoqda**. (kun.uz).*

2. **Kirmoqda** tashabbus qo'llaringda bo'lar-u tark etmoqda aslo. (U.Hamdam).

1-misolda -moqda yaxlit holda hozirgi zamon grammatik shakli hisoblansa, 2-misolda -moq harakat nomi shakli, -da o'rin-payt kelishigi bo'lib -moq+da tarzida qismlarga ajraladi. Bu ikki holatni farqlash -moqda zamon shaklining faqat kesim bo'lagi tarkibida uchrashidan kelib chiqilsa, so'zning sintaktik vazifasiga tayangan holda amalga oshiriladi, ya'ni bu holda morfoanalizator sintaktik analizator tahliliga ehtiyoj sezadi.

Agar $\{F+\downarrow N+moqda\}$ =kesim bo'lsa, u holda "moqda=Z2(3)" bo'ladi.

-yotib/-ayotib shakli. Bu shakl ham ma'noviy jihatdan nutq momentida davom etayotgan harakat-holatlarni ifodalasa-da, asosan og'zaki nutq uchun xoslangani bilan hozirgi zamonning boshqa grammatik shakllaridan farqlanadi. Ta'limiy korpus matnlarida bu shakl hozirgi zamonning eng kam uchragan grammatik shakli bo'lib, qidiruvda 171 ta natija qayd etildi. Aslida hozirgi o'zbek tilida og'zaki nutqda -yotib/-ayotib shakli ancha faol qo'llaniladi. Statistik tahlil yozma matnlar ustida olib borilganligi sababli olingan natija bu shaklning yozma nutqda nafaol ekanligini ko'rsatadi. Qolaversa, 171 ta natijadan 155 tasida -yotib/-ayotib qahramonlar nutqida va xalq og'zaki ijodi matnlarida uchrashi ham uning asosan og'zaki nutq uchun xoslanganligini ko'rsatadi.

-yotib/-ayotib shaklidan so'ng shaxs-son qo'shimchalarining ikkinchi guruhi ishlatiladi. Bunda uchinchi shaxsda ham maxsus shaxs-son ko'rsatkichi -di qo'llaniladi.

$F+\downarrow N+\downarrow BB+yotib+Sh2$ bo'lsa, u holda "yotib= Z2(4,al1)"

$F+\downarrow N+ayotib+Sh2$ bo'lsa, u holda "ayotib= Z2(4,al2)"

-yotir/-ayotir shakli. Bu shakl hozirgi davomli zamonning boshqa qo'shimchalaridan asosan badiiy uslub doirasida qo'llanilishi bilan farq qiladi. Hissiy bo'yoqqa ega ekanligi -yotir/-ayotir shaklining bu uslubda keng qo'llanilishini ta'minlagan asosiy omil hisoblanadi. Ta'limiy korpus matnlarida ham bu shakl ko'proq badiiy asarlar, xalq og'zaki ijodi namunalari tarkibida uchraydi. Shuningdek, tarixiy asarlar matnida ham -yotir/-ayotir shakli ko'p uchraydi.

-yotir/-ayotir shaklidan keyin ikkinchi guruh shaxs-son shakllari qo'llaniladi, uchinchi shaxsda zamon shaklining o'zi shaxs-son

ma'nosini ham ifodalaydi.

$F+\downarrow N+\downarrow BB+yotir+\downarrow Sh2$ bo'lsa, u holda "yotir= $Z2(5,al1)$ "

$F+\downarrow N+ayotir+\downarrow Sh2$ bo'lsa, u holda "ayotir= $Z2(5,al2)$ "

-yotgan/-ayotgan shakli. -yotgan/-ayotgan shakli asosidagi harakat-holat davomiy mazmunga ega bo'lgan sifatdash hosil qilishga xizmat qiladi. Bu shakldagi sifatdashning zamoni nisbiy xarakterga ega bo'lib, ko'pincha gapdagi kesimning zamoniga bog'langan bo'ladi. Shunga ko'ra, uni hozirgi zamon grammatik shakllari tarkibida o'rganish shartlidir. Chunki -yotgan/-ayotgan shaklida "hozirgi zamon" ma'nosiga qaraganda "davomiylik" ma'nosi yetakchilik qiladi. Ko'proq hozirgi zamondagi davomiylikni ifodalagani bois u hozirgi zamon sifatdoshi sifatida baholanadi. Masalan: *Ey qodir Egam, dodimni eshitayotgan bo'lsang, javob ber!.. (U.Hamdami)*

-yotgan/-ayotgan shaklining sifatdash vazifasida qo'llanishlarini quyidagicha modellashtirish mumkin:

$F+\downarrow N+\downarrow BB+yotgan+\downarrow lar+\downarrow im/ing/i/imiz/ingiz+\downarrow ning/ni/ga/da/dan+\downarrow niki+\downarrow dir/mi/chi/a$ bo'lsa, "yotgan= $Z2(6,al1)$ "

$F+\downarrow N+ayotgan+\downarrow lar+\downarrow im/ing/i/imiz/ingiz+\downarrow ning/ni/ga/da/dan+\downarrow niki+\downarrow dir/mi/chi/a$ bo'lsa, u holda "ayotgan= $Z2(6,al2)$ "

Demak, -yotgan/-ayotgan shakli modelida majburiy shakl fe'l lemma+yotgan/ayotgan bo'lib, qolgan shakllarning so'z tarkibida bo'lishi ixtiyoriydir.

-yotgan/-ayotgan kesimlik shakli sifatida kelganda undan so'ng ikkinchi guruh shaxs-son qo'shimchasi (uchinchi shaxsda maxsus shakl qo'shilmaydi) yoki *ekan, emish* to'liqsiz fe'llari kelishi mumkin. Ba'zan *emish* to'liqsiz fe'li -mish tarzida zamon shakliga qo'shib yozilishi mumkin. Masalan: *Tinib-tinchimas dunyo olimlari endi koinotdagi ayrim sayyoralar, masalan, Mars, Yupiter va Oyda mavjud bo'lgan tabiiy boyliklarni Yerga tashib kelish chorasini izlashayotganmish...* -yotgan/-ayotgan shakli kesim vazifasida kelganda so'z tarkibini quyidagicha modellashtirish mumkin:

$F+\downarrow N+\downarrow BB+yotgan+\downarrow Sh2+\downarrow mish+\downarrow Sh2$ bo'lsa, "yotgan= $Z2(6,al1)$ "

$F+\downarrow N+ayotgan+\downarrow Sh2+\downarrow mish+\downarrow Sh2$ bo'lsa, "ayotgan= $Z2(6,al2)$ "

-ydigan/-adigan shakli. Mazkur shakl orqali hosil qilingan sifatdash hozirgi va kelasi zamon ma'nolarini ifodalashi mumkin. -a/-y zamon shaklining hozirgi va kelasi zamon ma'nolarini ifodalashi yuzasidan yuqorida keltirilgan fikrlar -ydigan/-adigan shakli uchun ham xos. Hozirgi zamonda fe'l asosidagi harakat-holat subyektning nutq momentida ham amalda bo'lgan xususiyati sifatida

ko'rsatiladi. -yotgan shaklidan farqli ravishda -ydigan/-adigan subyektning takroriy, turg'un xususiyatini ifodalaydi. Masalan: *Sotiboldi to'qigan savatchalarini ulgurji oladigan baqqoldan yigirma tanga qarz ko'tardi. (A.Qahhor)*

Sifatdosh shakllarining nutq momentiga munosabati haqida gap kesimining va umumiy kontekstning zamonga munosabatidan kelib chiqibgina xulosa berish mumkin. -ydigan/-adigan shakli sifatdosh vazifasini bajarganda modeli quyidagicha ko'rinishlarga ega bo'ladi:

F+↓N+↓BB+ydigan+↓lar+↓im/ing/i/imiz/ingiz+↓ning/ni/ga/da/dan+↓niki+ ↓dir/mi/chi/a bo'lsa, u holda "ydigan= Z2(7,al1)"

F+↓N+adigan+↓lar+↓im/ing/i/imiz/ingiz+↓ning/ni/ga/da/dan+↓niki+ ↓dir/mi/chi/a bo'lsa, u holda "adigan= Z2(7,al2)"

-ydigan/-adigan shaklining fe'l kesim tarkibida kelishini quyidagicha modellash tirish mumkin:

F+↓N+↓BB+ydigan+↓Sh2+↓mish+↓Sh2 bo'lsa, u holda "ydigan= Z2(7,al1)"

F+↓N+adigan+↓Sh2+↓mish+↓Sh2 bo'lsa, u holda "adigan= Z2(7,al2)"

Yur, tur, yot, o'tir fe'llari -ib va shaxs-son shakllarini qabul qilib ko'makchi fe'l vazifasida har doim, mustaqil fe'l vazifasida esa ma'no jihatdan holat fe'lga mansub bo'lganda hozirgi zamon ma'nosini anglatadi. Masalan:

Mustaqil fe'l: *Biroq hozirda kollej binosi bo'sh holatda **turibdi**.* (marifat.uz)

Ko'makchi fe'l: *Maktabgacha ta'lim sohasida misli ko'rilmagan o'zgarishlarni bugun har bir yurtdoshimiz sezib, kuzatib **turibdi**.* (marifat.uz)

Mazkur fe'llar harakat fe'li sifatida ham qo'llanilish imkoniga ega va bunda -ib va shaxs-son shakllari bilan o'tgan zamon ma'nosini bildiradi. Masalan: *Hamdam ayasiga qaradi: – Qachon men tomدا yuribman? (A.Qahhor)* Biroq ta'limiy korpus mantnlari da "yur/tur/yot/o'tir+ib+man/san/di/miz/siz" shakllaridagi qidiruvlar natijalari tahlil qilinganda o'tgan zamon ma'nosida qo'llanishlar miqdori 2%ga ham yetmasligi aniq bo'ldi. 98% qo'llanishlarda esa hozirgi zamon ma'nosi ifodalangan. O'zbek tilining mavjud korpuslarida hozircha *yur, tur, yot, o'tir* fe'llarining muayyan kontekstda harakat fe'li yoki holat fe'li ma'nosida kelayotganligini avtomatik aniqlash imkoni yo'q. Demak, tahlildagi 98 foiz natijaga asoslangan holda bu to'rt fe'lning -ib va shaxs-son shakli bilan qo'llanishlarini to'liq hozirgi zamon sifatida annotatsiyalash mumkin. Bunda annotatsiyalash ham

98 foiz to'g'ri bajariladi va bu avtomatik annotatsiyalash jarayoni uchun me'yoriy holat hisoblanadi. Modelda hozirgi zamon ma'nosi uchun bu fe'l lemmalarga -ib shakli to'g'ridan to'g'ri qo'shilishi shartligi ham ko'rsatiladi, ya'ni -ib shaklidan oldin nisbat va bo'lishsizlik qo'shimchalari kelmasligi kerak. Agar nisbat va bo'lishsizlik shakli qo'shilsa, fe'ldan o'tgan zamon ma'nosi anglashiladi.

Agar $F=\{yur\}+ib+Sh2$ bo'lsa, "yurib=Z2(8)"

Agar $F=\{tur\}+ib+Sh2$ bo'lsa, "turib=Z2(9)"

Agar $F=\{yot\}+ib+Sh2$ bo'lsa, "yotib=Z2(10)"

Agar $F=\{o'tir\}+ib+Sh2$ bo'lsa, "o'tirib=Z2(11)"

XULOSA

Umuman, zamon shakllarini annotatsiyalash jarayonida ularning asosga, o'zidan oldingi va o'zidan keyingi qo'shimchaga birikish imkoniyatlari – morfotaktik qoidalar alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilida bir zamonga mansub grammatik shaklning kontekst ta'sirida boshqa zamonni ifodalashi ancha keng tarqalgan hodisa bo'lib, avtomatik annotatsiyalashda ular muammolarni yuzaga keltiradi. Zamonni ifodalovchi grammatik shakllarning korpus matnlarida anglatgan turli ma'nolarini statistik o'rganish va tavsifda o'rganish natijalariga tayanish shakl haqida nisbatan ishonchli ma'lumot beradi.

Adabiyotlar

- Abduraxmonova, N. 2021. *Kompyuter lingvistikasi*. – Toshkent: Nodirabegim. – B. 303.
- Elov B., Hamroyeva Sh., Axmedova X. 2022. *Methods for Creating Morphological Analyzer* // Intelligent Human Computer Interaction, 14th International Conference. – Tashkent. – P. 27–38.
- Elova D. 2022. *Tabiiy tilni qayta ishlash tizimlari* // "O'zbek amaliy filologiyasi istiqbollari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent. – B. 145.
- Ҳожи́ев, А. 1973. *Феъл*. Тошкент: Фан.
- Мусулмонова, Н. 2007. *Грамматик шаклларда категориял, ёндош ва ҳамроҳ маъно (замон ва майл категориялари мисолида)*: Фил.фан.номз...дисс. Тошкент.
- Сулаймонов, А., А. Ҳожи́ев, Ж. Жўраева. 1962. *Феъл замонлари*. Тошкент: Фан.
- Ғуломов, А. 1954. *Феъл*. Тошкент: Фан.

ANNOTATION OF GRAMMATICAL FORMS OF THE PRESENT CONTINUOUS

Khonnazarov Elyor¹

Abstract

The article provides information on the annotation and modeling of the grammatical forms representing the present continuous tense in the Uzbek language for the corpus. In this case, the existence of different situations in their use in the text, the possibility of modeling these situations were analyzed. In the analysis, statistical indicators are based on the texts of the educational corpus of the Uzbek language (uzschoolcorpora.uz).

Key words: *tense, present continuous tense, grammatical form, past tense, future tense, context, speech situation, moment of speech.*

References

- Abduraxmonova, N. 2021. *Kompyuter lingvistikasi*. – Toshkent: Nodirabegim. – B. 303.
- Elov, B., Hamroyeva, Sh., Axmedova, X. 2022. *Methods for Creating Morphological Analyzer // Intelligent Human Computer Interaction*, 14th International Conference. – Tashkent. – P. 27–38.
- Elova, D. 2022. *Tabiiy tilni qayta ishlash tizimlari // "O'zbek amaliy filologiyasi istiqbollari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari*. – Toshkent. – B. 145.
- Hojiyev, A. 1973. *Fe'l*. Toshkent: Fan.
- Musulmonova, N. 2007. *Grammatik shakllarda kategorial, yondosh va hamroh ma'no (zamon va mayl kategoriyalari misolida)*: Fil. fan. nomz... diss. Toshkent.
- Sulaymonov, A., A. Hojiyev, J. Jo'rayeva. 1962. *Fe'l zamonlari*. Toshkent: Fan.
- G'ulomov, A. 1954. *Fe'l*. Toshkent: Fan.

1 *Khonnazarov Elyor Gofurovich* – doctor of philosophy (PhD) in philological sciences, senior teacher of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i

E-mail: www.xonnazarov90@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-2778-3784

For citation: Khonnazarov, E. G. 2024. "Annotation of grammatical forms of the present continuous". *Uzbekistan: language and culture. Issues of applied philology* 2(5): 126-133. DOI:10.52773/tsuull.aphil.2024.2.5/ZEVR2166

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.
Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga
kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 29.03.2024-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasida.
Nashr b.t. 10,375.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida
tayyorlandi va sahifalandi.
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №3.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.